

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI**Mirzayev M.E. -***AndDPI mustaqil izlanuvchisi*

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi deganda, yosh avlodni Vatanga sadoqat, uni himoya qilishga tayyorlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalash tizimi tushuniladi. Bu tarbiya jamiyat ma'naviyati va mudofaa salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omildir. O'zbek tilining izohli lug'atida vatanparvarlik – "vatanparvarlarga xos ish, xatti-harakat, xislat" ekanligi qayd etilgan. Ushbu lug'atda vatanparvar so'zi bo'lsa, "o'z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko'rsatuvchi" sifatida tarif berilgan. Vatanparvarlik qadriyat sifatida asrlar davomida shakllanib kelgan bo'lib, u kishilarning o'z yurtiga muhabbati, uni himoya qilishga intilishi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi turli shakl va mazmun kasb etgan: qadimgi davrlardagi qabila tuzumlaridan tortib hozirgi zamon mustaqil davlatlarigacha, har bir davr va jamiyatda u o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Avvalo, O'zbekiston misolida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy bosqichlari – an'anaviy jamiyatdan Sovet davri va mustaqillik yillarigacha – tahlil qilinadi. Chunki, "Vatanparvarlik axloq falsafasining asosiy tamoyili hisoblanadi. Vatanparvarlik tamoyil sifatida: birinchidan, insoniy fazilatning ibtidosi, ilk sababi va asosidir; ikkinchidan, har qanday axloqiy xatti-harakat, xulq-atvor va axloqiy faoliyatning boshlang'ich qoidasi. Vatanparvarlik xususiyat sifatida esa uchinchidan, bir qator axloqiy fazilatlarini bir-biri bilan bog'laydi; to'rtinchidan, fazilatlarining bir-birini to'ldirishi va aloqasini ta'minlaydi." Buni esa O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning qadimiy davrlardanoq o'z yurtini himoya qilish, unga sadoqatli bo'lish fazilatlarini avlodlarga singdirib kelganini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Qadimgi davrlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi dastlab urug'-qabila munosabatlari doirasida shakllangan bo'lib, bu davrda jangovar an'analar va Vatanga sadoqat tuyg'usi og'zaki an'ana va urf-odatlar orqali o'tgan. Masalan, xalq dostonlari va afsonalarda yurtini dushmanlardan mardonavor himoya qilgan qahramonlar obrazi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. "Alpomish" dostonidagi Alpomish, "Go'ro'g'li" turkum dostonlardagi bahodirlar obrazi yoshlar ongiga vatanga sadoqat va mardlik fazilatlarini singdirgan.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarida harbiy mahorat va vatanparvarlik fazilatlarini ayniqsa qadrlangan. Jaloliddin Manguberdi (Xorazmshohlar davrining sarkardasi) Chingizxon bosqiniga qarshi mardonavor kurashi bilan tarixda vatanga sadoqat ramziga aylangan. Uning dushman qo'shinlari qurshovidan jasorat bilan chiqib ketgani va mamlakat ozodligi yo'lida shahid bo'lgani haqidagi rivoyatlar asrlar davomida yoshlar tarbiyasida ibrat maktabi vazifasini o'tab kelgan. Sohibqiron Amir Temur esa o'zining "Kuch adolatda" shiori ostida buyuk saltanat barpo etar ekan, mamlakat birligini ta'minlash, el-yurt tinchligi yo'lida xizmat qilishni eng oliy maqsad deb bilgan. Amir Temur tuzuklarida yurt boshqaruvi va harbiy burchga doir qoidalarga amal qilish qat'iy talab etilib, shaxsiy sadoqat va jasorat yuksak baholangan. Bu qoidalar temuriylar davridanoq yosh navqiron askarlarni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qilgan.

Shu tariqa, hali markazlashgan davlat institutlari to'la shakllanmagan davrlardayoq, oila va mahalla doirasida, bevosita hayot tarzi jarayonida yoshlar ongiga vatanparvarlik tuyg'ulari singdirilgan. Milliy qahramonlar timsoli, ota-bobolarining jangovar an'analari harbiy tarbiyaning norasmiy asosini tashkil etgan. Bu an'analar keyinchalik yozma manbalarda ham qayd etilgan. Masalan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'z "Boburnoma" asarida Hindiston bilan janglarda askarlarni ruhlantirish, yurtga muhabbat hissini oshirish haqida yozadi. Bu kabi manbalar o'rta asrlardagi tarbiya jarayonida vatanparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, Turkiston o'lkasining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlaka tuzumining o'rnatilishi sharoitida, mahalliy ziyolilar va jadid ma'rifatchilari orasida milliy ong va vatanparvarlik g'oyalari kuchaydi. Mustamlaka zulmiga qarshi kurash g'oyaviy jihatdan xalqni uyg'otish, ularda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish bilan bog'liq edi. O'sha davr ziyolilari yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berib, maktab ta'limi orqali milliy g'urur va vatanparvarlikni uyg'otishga harakat qildilar.

Jadidchilik harakati vakillaridan Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asarida tarbiyani “yo hayot – yo mamot masalasi” deya ta’riflar ekan, millat kelajagi tarbiyaga, xususan vatanparvarlik tarbiyasiga bog’liqligini uqtirgan. Avloniy va uning zamondoshlari (Mahmudxo’ja Behbudiy, Fitrat va boshqalar) milliy maktablar uchun darslik va qo’llanmalar yaratib, ularni vatanparvarlik ruhida yozishga intildilar. Masalan, Behbudiyning “Padarkush” pesasi va boshqa asarlarida milliy uyg’onish g’oyasi ilgari surilib, o’quvchi-yoshlarda yurt taqdiriga befarq bo’lmaslik tuyg’usi tarbiyalandi. 1913 yilda Behbudiy Samarqandda ochgan maktabida tarix va adabiyot darslarida o’quvchilarga milliy qahramonlar haqida ma’lumot berib, ularni faxrlanishga o’rgatgani ma’lum. Bu ma’rifatchilar ta’lim-tarbiyada diniy-ma’rifiy qadriyatlar bilan bir qatorda vatan tuyg’usini ham ustuvor ahamiyatga ega deb bildilar.

Shuningdek, XX asr boshlarida nashr etilgan ilk milliy matbuotda vatanparvarlik mavzusi ko’p yoritilgan. “Sadoyi Turkiston”, “Hurriyat” kabi gazetalar sahifalarida yoshlarni ona yurtga muhabbat, milliy istiqlol g’oyalari sodiqlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan maqolalar chop etilgan. Bu publitsistik tarbiya ham ma’lum ma’noda ommaviy ongni ko’tarishga, milliy o’zlikni anglashga xizmat qilgan.

Umuman, jadidlar davridagi tarbiyaviy faoliyat Mustaqillik g’oyasi va vatanparvarlik ruhini yosh avlodga singdirish bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi shakllanishining muhim bir bosqichi sifatida e’tirof etish mumkin. Bundan tashqari, harbiy vatanparvarlikning mohiyati davlat manfaatlari va davlat yaxlitligini himoya qilishga ko’proq e’tibor qaratadi. Fuqaro vatanparvarligida esa, davlat va fuqaro o’rtasidagi aloqadorlikka urg’u beriladi”. Aynan shu davrda milliy istiqlol uchun kurashga ruhiy zamin yaratilgan bo’lib, bu g’oyalar keyinchalik, sovet davri qiyinchiliklariga qaramasdan, xalq xotirasida saqlanib qoldi.

1991-yilda O’zbekiston mustaqillikka erishgach, vatanparvarlik tarbiyasi yangi mazmun va bosqichga kirdi. Endi “vatan” tushunchasi bevosita mustaqil O’zbekiston davlati, uning milliy manfaatlari bilan bog’lanib, tarbiya tizimida milliy istiqlol g’oyasi asosiy yo’nalishga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yangi davlatchilik asoslarini yaratish jarayonida yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda tarixiy xotira va milliy g’ururni tiklashga alohida e’tibor qaratildi. Birinchi Prezident I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ajdodlarimizning ona yurt yo’lida qilgan fidokorona xizmatlarini esga olib, yoshlarni tarixdan saboq chiqarishga va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga da’vat etgan.

Davlat siyosati darajasida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 1992-yil 14-yanvarda O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topdi va ushbu sana “Vatan himoyachilari kuni” umumxalq bayrami sifatida e’lon qilindi. Har yili 14-yanvar atrofida armiyada ochiq eshiklar kuni, harbiy ko’rgazmalar, askarlar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlar o’tkazilishi yo’lga qo’yildi. Bu tadbirlar yoshlar orasida armiyaga qiziqish uyg’otish, harbiy xizmatga hurmat bilan qarash tuyg’ularini shakllantirishga xizmat qildi.

Mustaqillik davrida ta’lim tizimi islohoti doirasida maktablarda “Vatan tuyg’usi”, “Odobnoma”, “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” kabi yangi fan va dasturlar joriy etildi. 1990-yillarning oxiri va 2000-yillar boshida umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida “Chaqiruvgacha boshlang’ich tayyorgarlik” (ChBT) kurslari qayta tiklandi. Ushbu darslar davomida yigit-qizlar boshlang’ich harbiy ko’nikmalar, saf tayyorgarligi, qurol tuzilishi, fuqaro muhofazasi asoslari kabi bilimlarni oldilar. Mazkur fandan beriladigan baho hatto attestatga yozilib, uni harbiy kafedra yoki oliy harbiy bilim yurtlariga kirishda hisobga olish amaliyoti bo’ldi. Bu bilan maktab davridan boshlab yoshlarning armiya hayoti va mudofaa mas’uliyatiga qiziqishi orttirildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nodavlat va jamoat tashkilotlari ham qayta tuzildi. 1991-yil noyabr oyida O’zbekiston mudofaasiga ko’maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etildi. “Vatanparvar” tashkiloti avtomobil maktablari, texnik sport klublari orqali yigit-qizlarga haydovchilikka o’qitish, aviasiya va texnik to’garaklar, harbiy-amaliy sport musobaqalarini uyushtirishga kirishdi. Bir so’z bilan aytganda, mustaqillik yillarida bu tashkilot yoshlarning harbiy-texnik bilim va ko’nikmalarini oshirishga xizmat qilib, mudofaa vazifasiga tayyor kadrlarni tarbiyalashga hissa qo’shib kelmoqda. “Vatanparvar” tashkiloti 1992-yilda MDH doirasida tuzilgan DOSAAF uyushmasiga ham a’zo bo’lgan, keyinchalik hamkorlik aloqalarini

davom ettirgan.

Bundan tashqari, mustaqillik yillarida Respublika miqyosida turli harbiy-vatanparvarlik tadbirlari yo'lga qo'yildi. Masalan, "Shunqorlar" musobaqasi, "Vatan tayanchi" ko'rik-tanlovi kabi tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlar orasida sportning harbiy-amaliy turlari (masalan, miltiqdan otish, saf tortish, harbiy qo'shiq aytish va hokazo) bo'yicha bellashuvlar o'tkazildi. Bunday tadbirlarda Mudofaa vazirligi, Yoshlar ittifoqi (avvalgi "Kamolot" YoIH) kabi tuzilmalar hamkorlikda ishladi. Xususan, 2017-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining ustavida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan bo'lib, u tomonidan "Vatanparvarlik oyligi", "Matonat madhi" kabi turkum tadbirlar yo'lga qo'yildi.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maxsus ta'lim muassasalari – harbiy litsey va akademik litseylarning ham roli katta bo'ldi. Jumladan, 2017-yil 5-iyulda Prezident farmoni bilan ushbu muassasalar negizida yangi turdagi harbiy-akademik litseylar – "Temurbeklar maktabi" nomli ixtisoslashgan litseylar tashkil etildi. "Temurbeklar maktabi"larida 9-sinfni tamomlagan o'g'il bolalar ikki yil davomida umumta'lim bilan bir qatorda harbiy kasbga yo'naltirilgan maxsus tayyorgarlik oladi. O'quv dasturiga harbiy-taktik tayyorgarlik, jismoniy tarbiya, vatan tarixi chuqurlashtirilgan o'qitish kabi fanlar kiritilgan. Bu maktablarda o'qiyotgan yoshlar keyinchalik oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirib, professional ofitserlar bo'lib yetishmoqda. "Temurbeklar maktabi"ning nomlanishi ham bejiz emas – Amir Temur vorislariga xos vatanparvarlik ruhini yoshlar qalbida uyg'otish maqsadini ko'zlaydi.

2018-yilda O'zbekiston hukumati yoshlar tarbiyasiga oid muhim hujjatni qabul qildi – Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qarori bilan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya yoshlarga oid davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida vatanparvarlik tarbiyasini kompleks rivojlantirishga qaratilgan. Unda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berildi. Jumladan, konsepsiyada tarbiyaning asosiy prinsiplari qatorida tarixiylik, uzluksizlik, bosqichma-bosqichlik, oilaning ishtiroki, davlat va jamoatchilik hamkorligi kabi tamoyillar qayd etildi. Konsepsiya doirasida ishlanadigan chora-tadbirlar dasturi orqali maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan tizimda vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish choralari belgilandi.

Konsepsiya asosida Mudofaa vazirligi huzurida "Vatanparvarlik" markazlari tashkil etilib, ularda zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilmoqda, harbiy xizmatga qiziqtirish maqsadida turli harbiy texnika ko'rgazmalari, maydonchalar tashkil qilinmoqda. Shuningdek, 2019-yildan boshlab har yili oktabr-noyabr oylarida O'zbekistonda "Vatanparvarlik oyligi" o'tkazilishi yo'lga qo'yildi – bu davrda barcha hududlarda yoshlar ishtirokida vatan mavzusida insholar tanlovi, harbiy qism va muzeylarga sayohatlar, huquq-tartibot idoralari xodimlari bilan uchrashuvlar kabi ko'plab tadbirlar tashkil etiladi.

2023-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018-yildagi konsepsiya o'rniga yangilangan dastur tasdiqlandi. Yangi hujjatda zamonaviy geosiyosiy vaziyat va axborot xurujlari davrida yoshlar ongiga vatanparvarlikni singdirishning zamonaviy usullari (internet resurslari orqali targ'ibot, harbiy-vatanparvarlik kontentini ko'paytirish va h.k.) belgilangan.

Yuqoridagi bosqichlarni umumlashtirar ekanmiz, mustaqillik yillarida O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi izchil shakllanganini ta'kidlab o'tish joiz. Agar dastlabki yillarda bu boradagi ishlar asosan tarixiy xotirani tiklash va yoshlar ongida milliy g'ururni uyg'otishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik u institutsional asosga ega bo'ldi – qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlari qabul qilindi, maxsus ta'lim muassasalari va jamoat tuzilmalari jalb etildi. Yoshlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usining kuchliligi ularning ma'naviy kamolotga bo'lgan ehtiyojlarini mustahkamligini va barqarorligini ta'minlashi ko'rsatib o'tiladi. Bu esa bugungi kunda yoshlarga harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini berish davlat siyosati darajasida yo'lga qo'yilgan bo'lib, u uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida shakllandi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Prezidenti qarori, 2019 yil 28-iyun, PQ–4375-son “Prinsipial yangi ‘Temurbeklar maktabi’ harbiy-akademik litseylarini tashkil etish to‘g‘risida”
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН. 2014. – Б. 16-17.
3. Саидов И. Янги Ўзбекистонда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг ижтимоий-фалсафий омиллари. 09.00.04 – Ижтимоий фалсафа Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Андижон, 2022 – б. 22.
4. Xasanov B. Harbiy-vatanparvarlikning tarixiy ildizlari. Xalq so‘zi gazetasi, 2024 yil 11-yanvar.

REZYUME:

Maqola yosh avlodni Vatanga sadoqat, uni himoya qilishga tayyorlik va milliy g‘urur ruhida tarbiyalash maqsadlarini falsafiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqadi.

Kalit so‘zlar: Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, axloq falsafasi, xulq-atvor, sadoqatli bo‘lish, insoniy fazilatlar

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются цели воспитания подрастающего поколения в духе преданности Родине, готовности к её защите и национальной гордости с философской точки зрения.

Ключевые слова: Преданность Родине, национальная гордость, нравственная философия, поведение, преданность, человеческие качества

RESUME:

This article examines the goals of educating the younger generation in the spirit of loyalty to the Motherland, readiness to defend it, and national pride from a philosophical perspective.

Keywords: Loyalty to the homeland, national pride, moral philosophy, behavior, loyalty, human qualities